

IX bo'lim. MILLIY AN'ANA VA QADRIYATLARIMIZ E'ZOZDA

1-Mavzu: Oila – muqaddas qo'rg'on

Dars maqsadi:

- Shuhrat Rahimovning “Bobo va buvijonlar haqida” she'ri bilan tanishtirish;

- oila haqidagi tushunchalarni kengaytirish;

- og'zaki nutqini va lug'at boyligini oshirish.

Tayanch so'zlar: oila, bobo, buvi, qariyalarga hurmat.

Didaktik materiallar: oilaviy an'analarni ifoda etgan rasmlar.

Darsning borishi:

I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)

Darsni tashkillashtirib olish.

Faollashtiruvchi mashq: “*Meni tushun*” mashqi.

Gap nima haqida ekanligini aniqlang. Unda sizga eng yaqin kishilar birgalikda yashashadi. U jamiyatimizning eng kichik bo'lagi, tarbiya o'chogi, kichik Vatanimizdir.

II. O'tilganlarni takrorlash. (8 daqiqa)

“Bobolar merosi” mavzusida yaratilgan matn o'qitiladi.

III. Darsning asosiy qismi. (28 daqiqa)

Amaliy topshiriq: Nuqtalar o'rniga mos so'zni qo'ying. (juftlikda ishlash uchun)

... - muqaddas dargoh.

Amaliy topshiriq muhokamasi uchun quyidagi savollar tavsiya etiladi:

1. Siz qanday so'zni qo'ydingiz?

2. Nima uchun bu so'z to'g'ri keladi deb o'ylaysiz?

3. So'zni tanlashda nimalarga e'tibor berdingiz?

4. Sizningcha, nuqtalar o'rniga yana qanday so'z qo'yilishi mumkin?

Mavzuni tushuntirish:

“*Aqliy hujum*” metodi.

“Milliy an'ana va qadriyatlar e'zozda” deganda nimani tushundingiz? O'qituvchi o'quvchilarning fikrini umumlashtirib, xulosa qilinadi. Milliy

an'analar va qadriyatlar haqida suhbat o'tkaziladi. Ularni e'zozlashda oilaning o'рни haqida tushuntiriladi.

Oila qadim-qadimdan muqaddas qo'rg'on hisoblanib kelingan. Unda farzandlarni odobli, ma'naviy yetuk bo'lib kamol topishida keksalar, ota-onaning roli katta. Oilada kattalarini hurmat qilishi, mehr-oqibatli bo'lish, saranjom-sarishtalik va boshqa qadriyatlarni uchratamiz.

Matn bilan ishlash.

Shuhrat Rahimovning "Bobo va buvijonlar haqida" she'rini ifodali o'qib beriladi.

Darslikda berilgan savollarga javob beriladi.

1. She'r kimning tilidan aytilgan?
2. She'rni o'qish jarayonida hayolingizdan nimalar o'tdi?
3. She'rda bobo va buvijonlarimiz haqida nima deyilgan?
4. Ularga qanday munosabatda bo'lishimiz kerak?
5. "Qari bilganni pari bilmas" deganda nimani tushunasiz?
6. Siz oilangizda qanday axloq-odob qoidalariga amal qilasiz?

She'r o'quvchilarga zanjir usulida ifodali o'qitiladi.

"Qofiyadoshini top" mashqi.

She'rdagi qofiyadosh so'zlar aniqlanadi: bilmaydilar-qilmaydilar, mehribon-o'rtoqjon, quloq sol-darhol, tillodir-a'lodir,...)

"Tanlab o'qish" mashqi o'tkaziladi.

She'rdan *nasihat, tillo, to'g'riso'z* so'zlari ishtirok etgan misralar topib o'qitiladi.

"Ma'nodoshini top" mashqi.

Bu so'zlarga ma'nodosh so'zlar topiladi: nasihat-o'git; tillo-oltin, zar; to'g'riso'z- rostgo'y.

Bobo va buvijonlarga ta'rif beriladi: nasihatgo'y, mehribon, ...

Darslikda berilgan maqollar o'qiladi va mazmuni izohlaniladi.

"Kattadan kichik tomon" mashqi.

So'zlarda harflarning kattasidan kichigi tomon o'qisangiz maqol hosil bo'ladi.

arQ_i uny_{ngi} raifsh_{tasi}, (Qari uyning farishtasi,)

ranS_jma_{oi}, raiS_{sh}tasi. (saranjomi-sarishtasi.)

inraQ_{ing} urmah_{ti}-rfa_z. (Qarining hurmati -farz.)

ilraQ_{ikni} onold_{ik} zbear, ishoyl_{kni} amtak_{rlik}.


(Qarilikni donolik bezar, yoshlikni kamtarlik.)

Mashq daftari bilan ishlash.

O'quvchilar mustaqil ravishda daftarda berilgan topshiriqlarni bajarishadi.

"Bog'lang" mashqi.

So'zlarni ularning mazmuni bilan moslashtirishadi.



She'r matnida berilgan "sehrli so'zlar"ni topib yoziladi.

IV. Darsga yakun yasash va baholash. (4 daqiqa)

"O'gitlar sandig'i" Ibratli bolaning gaplari darslikdan o'qiladi va darsdan xulosa chiqariladi.

Yodda tuting!

Kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilish xalqimizga xos qadriyatlardan. Keksalarning so'zlariga quloq solish, nasihatlariga amal qilish lozim.

V. Uyga vazifa berish. (2 daqiqa)

She'rni ifodali o'qing. Oila a'zolaringiz haqida qisqacha ma'lumot yozing.